

# Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik



2018 yil yanvar-dekabr oylari

## E'tibor bering!

- **2018 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 84,3 %ni tashkil etdi;**
- **2319 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi;**
- **2018 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning soni (har 1000 aholiga, birlikda) 16,9 birlikni tashkil qildi.**

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 2389 ta yangi kichik va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,6 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (25,5%), sanoat tarmog'ida (23,4%), savdo tarmog'ida (18,6%), qurilish tarmog'ida (12,7%), yashash va ovqatlanishda (6,7%) va tashish va saqlashda (3,0%) tashkil etilgan.



## 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'Ichov birligi	2017 y.	2018 y.	(+/-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>9310</b>	<b>11197</b>	<b>1887</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1776</b>	<b>2319</b>	<b>543</b>
YaHM	%	84,4	84,3	-0,1
Sanoat	%	64,9	64,4	-0,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,2	99,3	0,1
Investitsiya	%	54,9	40,4	-14,5
Qurilish	%	94,1	93,7	-0,4
Savdo	%	94,3	91,2	-3,1
Xizmatlar	%	73,4	67,9	-5,5
Yuk tashish	%	95,8	94,0	-1,8
Yuk aylanmasi	%	98,1	98,5	0,4
Yo'lovchi tashish	%	95,5	95,7	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,0	98,0	0,0
Eksport	%	75,8	89,6	13,8
Import	%	86,8	93,1	6,3


**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona  
va mikrofirmalar**

(birlikda)

	<b>yanvar-dekabr 2017 y.</b>	<b>yanvar-dekabr 2018 y.</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1776</b>	<b>2319</b>
Jizzax sh.	457	641
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	44	80
Baxmal	95	173
G'allaorol	137	178
Sharof Rashidov	284	373
Do'stlik	71	100
Zomin	188	167
Zarbdor	107	128
Zafarobod	43	65
Mirzacho'l	65	65
Paxtakor	64	99
Forish	190	197
Yangiobod	31	53

2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Jizzax shahrida - 641 ta, Sharof Rashidov tumanida - 373 ta, Forish tumanida - 197 ta. G'allaorol tumanida - 178 ta, Baxmal tumanida - 173 ta, Zomin, Zarbdor, Do'stlik, Paxtakor va Arnasoy tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 170-80 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Zafarobod, Mirzacho'l tumanlari - 65 ta va Yangiobod - 53 tani tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax.sh ga - 27,6 %, Sharof Rashidov tumani- 16,1 %, Forish tumani - 8,5 %, G'allaorol tumani - 7,7 %, Baxmal tumani - 7,5 %, Zomin tumani 7,2 %, Zarbdor tumani - 5,5 %, Do'stlik tumani - 4,3 %, Paxtakor tumani - 4,3 %, Arnasoy tumani - 3,4 %, Zafarobod tumani - 2,8 %, Mirzacho'l tumani - 2,8 %, eng past ko'rsatkich Yangiobod tumanida - 2,3 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	<b>yanvar-dekabr 2017 y.</b>	<b>yanvar-dekabr 2018 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>1776</b>	<b>2319</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	571	592
Sanoat	405	542
Qurilish	157	295
Savdo	249	432
Tashish va saqlash	60	69
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	161	155
Axborot va aloqa	23	20
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	34	29
Boshqa turdag'i xizmatlar	116	185

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 592 ta, shuningdek:

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 592**


**Sanoatda - 542 ta.;**

**Savdoda - 432 ta.;**

**Qurilishda - 295 ta.;**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 155 ta.;**


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida - 592 ta, Sanoatda - 542 ta, savdoda - 432ta, Qurilishda - 295 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 155 ta, Tashish va saqlashda - 69 ta, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 29 ta, Axborot va aloqada - 20 ta, va Boshqa turdag'i xizmatlarda - 185 tani tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Arnasoy tumanida 22,0 birlikda, Jizzax shaxrida 21,2 birlikda, Mirzacho'l tumanida 21,0 birlikda, Zafarobod tumanida 19,8 birlikda, Yangiobod tumanida 18,8 birlikda va Do'stlik tumanida 18,1 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 17,8-14,7 birlik oralig'ida Zarbdor, G'allaorol, Sharof Rashidov, Baxmal va Forish tumanlarida aniqlandi. Paxtakor tumanida 13,0 birlikda va Zomin tumanida 12,9 birlikda ushbu ko'rsatkichlar past bo'lib qolmoqda.

**2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 15,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 16,9 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 1,9 birlikka ko'paydi.

## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 64,4 %, qurilishda - 93,7 %, investitsiyada - 34,9 %, savdoda - 86,3 %, eksportda - 89,6 %, importda - 93,1 % va xizmatlar sohasidagi - 67,9 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

### 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 84,3 %ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-dekabrida 84,4 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi (yanvar-dekabr holatiga, %da)



### Kichik tadbirkorlikninig ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Jizzax viloyati	64,4	93,7	67,9	40,4
Jizzax sh.	67,8	86,4	42,2	46,2
tumanlar:				
Arnasoy	49,2	100,0	99,3	16,5
Baxmal	100,0	100,0	85,2	45,3
G'allaorol	100,0	100,0	99,0	53,1
SHarof Rashidov	100,0	100,0	98,7	44,9
Do'stlik	12,9	100,0	98,8	33,8
Zomin	77,8	100,0	88,0	18,6
Zarbdor	37,5	100,0	98,7	58,0
Zafarobod	45,6	100,0	98,7	12,1
Mirzacho'l	100,0	76,6	98,9	15,9
Paxtakor	52,2	100,0	94,7	71,6
Forish	100,0	100,0	99,4	77,7
Yangiobod	100,0	100,0	98,9	51,2

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini SHarof Rashidov (100,0 %), Baxmal (100,0 %), G'allaorol (100,0 %), Forish (100,0 %) va Yangiobod (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

**Qurilishda** - Jizzax shaxri (86,4 %), Mirzacho'l tumani (76,6 %) va qolgan tumanlarning ulushi 100% ni tashkil etadi.

**Xizmatlar sohasida** Forish (99,4 %), Arnasoy (99,3 %), G'allaorol (99,0 %), tumanlari tashkil etadi.

**Investitsiyada** - Forish (77,7 %), Paxtakor (71,6 %), va Zarbdor (58,0 %) tumanlari tashkil etadi.

# Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2018 yilning  
yanvar-dekabrida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2109,5 mld. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 64,4 foizi) yoki 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan

1280,7 mld. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 40,4 foizi) o'zlashtirildi va 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 114,9 foizni tashkil qildi;



1193,6 mld. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 93,7 foizi) bajarildi va 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 foizni tashkil qildi;

2151,7 mld. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 67,9 foizi), 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 foizni tashkil qildi.



chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 91,2 foizi yoki 3971,3 mld. so'mi (o'sish sur'ati 104,0 foizni tashkil qildi) shakllantirildi;




63,6 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 89,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 234,8 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi import hajmining 93,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,8 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 98,5 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 103,0 foizga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 98,0 foizi) ko'payishi ta'minlandi;

## Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangiobod, Forish, Mirzacho'l, Zafarobod, G'allaorol va Sharof Rashidov (100,0 %) tumani-lari eng past ko'rsatkichni Do'stlik tumani — 52,2 % ni tashkil etdi.


## 2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (1213,3 mln.so'm), Sharof Rashidov (162,7 mln.so'm), Zomin (126,3 mln.so'm) va Forish (123,3 mln.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangiobod (35,7 mln.so'm) va Zarbdor tumanlarida (39,1 mln.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Yangiobod (100,0%), Mirzacho'l (100,0%), Baxmal (100,0%), G'allaorol (100,0%), Sharof Rashidov (100,0%), va Forish (100,0%) tumanlariga to'g'ri kelsa, Do'stlik (12,9%) va Zarbdor (37,5%) tumanlarida esa bu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda.


## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (923,5 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (596,8 mlrd.so'm), Zomin (476,6 mlrd.so'm), va Baxmal (378,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




## 2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (451,2 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (161,0 mlrd.so'm), Paxtakor (95,8 mlrd.so'm) va G'allaorol (93,2 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




## 2018 yil yanvar- dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Jizzax shahri (700,8 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (260,8 mlrd.so'm), G'allaorol (198,1 mlrd.so'm), Do'stlik (191,6 mlrd.so'm) va Zomin (145,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil IV - chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 67 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 16 tani (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 23,9 %), qurilish korxonalari - 8 tani (11,9 %), savdo korxonalari - 11 tani (16,4 %), xizmatlar sohasi korxonalari - 14 tani (20,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari esa - 18 tani (26,9 %) tashkil etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 20,9 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 62,7 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 27,3 % va 36,4 %, xizmatlar sohasida – 7,1 % va 78,6 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 5,6 % va 77,8 %, sanoatda – 50,0 % va 37,5 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 12,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 16,7 % va savdoda – 36,4 %ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV chorak uchun, %



Kuzatuvda ishtirok etgan respondentlar fikricha, **iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishi yaqin uch oyda**, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha olib qaralganida: sanoatda 62,5 %, savdoda 63,6 %, xizmatlar 71,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 27,8 % va qurilish tarmog'ida 62,5 % – faoliyat ko'rsatuvchilar tomonidan kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

## Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: F.Baxriddinov

Tel.: (0371) 230-83-43, 230-83-61